

**O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyada ilmiy ishlar va innovatsiyalar
yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**

H I S O B O T

1. 2025-yilning yanvar oyida “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasida jo‘rnavozi Akbarbekov Davronbek Ravshanbekovich, 4-kurs “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi talabalari Haydarov Islom va Karimova Moxinur, “Kasbiy ta’lim” yo‘nalishining 4-kurs talabasi Sattarova Dildora, 1-kurs tayanch doktoranti Paxrudinova Karomat O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug‘iga binoan “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

2. 2025-yilning yanvar oyida O‘zDXA rektorining 2025-yil 16-yanvardagi 80-k-sonli buyrug‘iga asosan nufuzli xalkaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasida indekslanuvni ilmiy jurnalda maqolalari e’lon qilgan I.Sultangirova, G.Usmonova, G.Abdiyeva, Abduxakimova va M.Murodovalar bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida rag‘batlantirildi.

3. O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida tahsil olayotgan ayollar va qizlarni ilmiy va professional faoliyatga keng jalb etish maqsadida, akademiya rektorining 2025-yil 3-fevraldagi 04-04/1-i-son buyrug‘iga muvofiq “Olima qizlar klubi” tashkil etildi.

4. 2025-yil yanvar oyida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San’at nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi 1-kurs magistranti Karamova Ra’no Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida o‘tkazilgan “Kelajak qanoti” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovida o‘zining “O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Po‘lat Madreymov hayotiga chizgilar” nomli maqolasi bilan ishtirok etib, ko‘rik-tanlovning ko‘krak nishoni, maxsus esdalik statuetkasi hamda sertifikati bilan taqdirlandi.

5. 2025-yil yanvar oyida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i Atavullayev Xayrullo Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida o‘tkazilgan “Kelajak

qanoti” xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovida o‘zining “O‘zbek raqs san’atining xorijda o‘rganilishi” nomli maqolasi bilan ishtirok etib, ko‘rik-tanlovning ko‘krak nishoni, maxsus esdalik statuetkasi hamda sertifikatini bilan taqdirlandi.

6. 2025-yilning 10-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovlarida ishtirok etish uchun onlayn ariza yuborish axborot tizimidan foydalanish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i hamda akademiya rektorining 2025-yil 3-fevraldagi 04-04/2-i-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, talabgorlar va ularning ilmiy rahbarlari hamda akademiya mas’ul xodimlari ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Akademiya rektori SH.Toxtasimov yig‘ilish ishtirokchilarini buyruqlar va reglamentning mazmun-mohiyati bilan yaqindan tanishtirib, talabgorlar va ularning ilmiy rahbarlari oldida turgan vazifalar hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berdi.

7. 2025-yil fevral oyida Mahalla radikanalining (Fm 107.8) “Ma’rifat chiroqlari” eshittirishida O‘zbek tili, ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi professori v.b., filologiya fanlari nomzodi Rvshan Jomonov suhbatini uch marotaba efirga uzatildi.

8. 2025-yilning fevral oyida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Tairova Yuliya “Qashqadaryo raqs san’atining hududiy xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi doirasida Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida qator mahorat darslari va tadbirlar o‘tkazdi. Tadqiqot davomida viloyat raqs san’atining o‘ziga xosligini asrab-avaylash masalalari muhokama etilib, dissertatsiya mavzusining ilmiy jihatlari o‘rganildi. Shuningdek, olib borilgan mahorat darslari negizida yosh ijrochilarning respublika ko‘rik-tanloviga tayyorgarlik ko‘rish borasida o‘quvchilarga amaliy yordam ko‘rsatildi.

9. 2025-yilning fevral oyida “San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc) Hulkar Hamrayeva tashabbusi bilan Javoharl’al Neru universiteti, Til, adabiyot va madaniyatshunoslik instituti

Markaziy Osiyo ilmiy tadqiqotlar markazi rahbari, taniqli boburshunos olim, filologiya fanlari doktori Axloq Ahmad Ahan ishtirokida “San’atshunoslik” yo‘nalishi talabalari uchun «“Katak” va “Lazgi” raqsi evolyusiyasi hamda Hindiston-O‘zbekiston madaniy aloqalari”», “O‘zbek milliy raqs san’atining Hindistonda targ‘ib qilinishi” mavzularida ilmiy seminar va mahorat darslari tashkil etildi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 12-fevraldagi 367/1-son bayonnomasiga asosan “O‘zbek tili, ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi Kosimova Dildora Xashimovnaga “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” ixtisosligi bo‘yicha “dotsent” ilmiy unvoni berildi.

11. 2025-yil 25 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–357-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MCHJ tomonidan “Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda startap-ekotizimini rivojlantirish” forumi o‘tkazildi. Mazkur forumda Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i SH.Xudoynazarova boshchiligidagi akademiya doktorantlari hamda iqtidorli talabalari ishtirok etdi.

12. 2025-yil fevral oyida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 17.02.2022-yilda 1567 raqam bilan ro‘yxatga olingan guvohnomaga muvofiq, “Nafosat olami” ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mazkur jurnal xoreografiya san’ati, san’atshunoslik, teatr va kino, musiqa san’ati, san’at tarixi, falsafa va nomoddiy madaniy meros, xalq ijodiyoti, kasbiy pedagogika, yosh tadqiqotchilar hamda yangiliklar yo‘nalishini o‘z ichiga qamrab olgan. 2025-

yilning fevral oyidan boshlab jurnalning elektron sayti yaratildi va o‘z faoliyatini boshladi. (<https://nafosat-olami.uz/>)

13. 2025-yilning 26-fevral kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi taklifiga binoan Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi direktori Akif Marifli akademiyaga tashrif buyurdi. Tashrifdan ko‘zlangan asosiy maqsad, O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikasining madaniyat va san‘at, xususan, xoreografiya san‘ati sohasida ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Muhokamalar chog‘ida O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi madaniyat va san‘at, ta‘lim, ilm-fan va tajriba almashinuvi kabi sohalardagi hamkorlikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratildi. Tashrif yakunida ikki davlatning sohaviy oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida seminar va mahorat darslarini tashkil etish, qo‘shma va almashinuv ta‘lim dasturlarini tashkil etish, qo‘shma ijodiy chiqishlar, tanlov va festivallar hamda ilmiy-ijodiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash masalalarini o‘z ichiga olgan anglashuv memorandumini tasdiqlashga kelishib olindi.

14. 2025-yil 28-fevral kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.02 – Musiqa san‘ati ixtisosligi bo‘yicha Mustafina Yekaterina Ilinichnaning “O‘zbekiston kompozitorlarining mustaqillik yillaridagi cholg‘u ijodida tarixiy o‘tmish timsollari” mavzusidagi san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkaziladi. Seminar xulosasiga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

15. 2025-yil 1-mart kuni Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlarda akademiyaning iqtidorli talabalari faol ishtirok etdilar. Shuningdek, sana munosabati bilan OAVlarida bir qator chiqishlar qilindi. Xususan, “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi Munisa Xoldorova va 2-kurs talabasi Shahina Narzullayevalar MTRK “Yoshlar” telekanalining “Yangi davr” informatsion dasturida hamda “Professional ta‘lim” yo‘nalishi, rus guruhi 2-kurs talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Yelizaveta Trashkova, “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi Munisa Xoldorova va 2-kurs talabasi Shahina Narzullayevalar “Dunyo

bo‘ylab” telekanalining rus tilidagi “Maxsus reportaj” informatsion dasturidagi chiqishlari efirga uzatildi.

16. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk markazi” davlat muassasasi tomonidan Xudoynazarova Shaxzoda Tursunovaga “Eshitishida hamda so‘zlashuvida nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun raqs harakatlarining tizimli inovatsion majmuasini yaratish” nomli amaliy va inovatsion loyiha uchun 2025 yil 24-fevralda mualliflik huquqi obykti sifatida deponentlash to‘g‘risida №008678 raqamli guvohnoma berildi.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-artdagi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasida o‘qituvchisi Babeshko Alina Aleksandrovna Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

18. 2025-yil 5-mart kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.01–Teatr san’ati ixtisosligi bo‘yicha Dusanov Rahimjon Raimqulovichning “O‘zbekistonda “Bir aktyor teatri”ning shakllanishi va uning badiiy asoslari” hamda Shavkatova Gulnoza Rustam qizining “Teatr repertuarlarini shakllantirishda maktab bilan hamkorlik masalalari” (bolalar teatri misolida) mavzularidagi san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkaziladi. Seminar xulosasiga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

19. 2025-yil 6-mart kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.02 – Musiqa tarixi ixtisosligi bo‘yicha Mulladjanova Xilolaxon Jamoliddin qizining “O‘zbekiston kompozitorlari ijodida modal tizimi” mavzusidagi san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkazildi. Seminar xulosasiga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

20. 2025-yilning 9-mart kuni “Xoreografiya pedagogikasi” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi Talxatova Dono O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bo‘lib o‘tgan “Astana stars” (“Ostona yulduzlari”) nomli xalqaro festivalda yakkaxon raqs ijrosi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etib, Gran-pri sohibi bo‘ldi.

Shuningdek, “Zamonaviy raqs” yoʻnalishi 4-kurs talabasi, “Energiya” raqs jamoasining yosh rahbari Dariya Moxova jamoaviy raqs ijrosi boʻyicha Gran-pri gʻolibi boʻldi.

21. 2025-yil 9-mart kuni “Xoreografiya jamoalari rahbari” 4-kurs talabasi Jahongir qizi Madinabonu “Scientific Publication” xalqaro ilmiy matbuot markazi tomonidan ilmiy izlanuvchilar oʻrtasida tashkil etilgan “Yuksak xizmatlari uchun” xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida “Lazgi muhabbat va qalb timsoli” mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etib, “Yuksak xizmatlari uchun” koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi.

22. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 6-martdagi 368/1-son bayonnomasiga asosan “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi Usmonova Gulasal Normuxammad qiziga “Teatr sanʼati” ixtisosligi boʻyicha “dotsent” ilmiy unvoni berildi.

23. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenining 2024/3 va 2024/4-sonlarida Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 2-bosqich tayanch doktoranti A.Muminova hamda 1-kurs mustaqil izlanuvchilari A.Adilov, I.Sultangirova va M.Muhamedovanning dissertatsiya mavzulari eʼlon qilindi.

24. 2025-yil 24-mart kuni Qashqadaryo viloyati “Olima ayollar jamiyati” ayollarni ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ilm-fan, taʼlim, sogʻliqni saqlash va ishlab chiqarish sohalarida oʻz imkoniyatlarini namoyon etishga yoʻnaltirish maqsadida tashkil etilgan “Oʻzbek ayollari – ilm-fan sohasining ilgʻor saflarida” nomli tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbirda 1-kurs tayanch doktoranti Tairova Yuliya oʻz maʼruzasi bilan ishtirok etdi va tashkilotchilarning tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

25. 2025-yil 28-mart kuni 17.00.08 – Sanʼat nazariyasi va tarixi ixtisosligi boʻyicha Shukurov Davronbek Shukurovichning “Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston sanʼatida biennale va festivallar faoliyatining badiiy-ijtimoiy asoslari” hamda 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi boʻyicha Yoʻldashev Izzat Ikramovichning “Oʻzbek etnomadaniyatida sinkretizm:

nazariya va amaliyot” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo’yicha ilmiy seminar o’tkaziladi. Seminar xulosasiga ko’ra har ikkala tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

26. 2025-yilning mart oyida 1-kurs tayanch doktoranti Tairova Yuliya “Qashqadaryo raqs san’atining hududiy xususiyatlari” mavzusi doirasidagi tadqiqotlarini amaliyotga joriy etish maqsadida, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida “Navro’z” umumxalq bayrami munosabati bilan o’tkazilgan bayram tantanalarida ishtirok etdi. Bu esa vohaning oilaviy, mavsumiy va ommaviy bayram tadbirlarida o’tkaziladigan turli marosimlar, odat va an’analarda raqsning o’rni, ayniqsa, Qashqadaryoning hududga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bayram tadbirlari hamda mavsumiy marosimlarda raqsning ahamiyatini tadqiq etishiga katta imkon bo’ldi.

27. 2025-yil 1-aprel kuni Chelyabinsk davlat madaniyat instituti tomonidan tashkil etilgan «Актуальные проблемы современного хореографического искусства и образования: отечественные традиции и международная практика» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada akademiya birinchi prorektori, professor R.Sultonova «Хореографической искусство Узбекистана: наследия и современность» nomli ma’ruzasi bilan (onlayn) ishtirok etdi.

28. 2025-yil 8-aprel kuni 05.01.09 – Hujjatshunoslik. Arxivshunoslik. Kutubxonashunoslik ixtisosligi bo’yicha Hakimova Muborakxon Yakubjonovnaning “Maktab kutubxonalarida o’quvchilar mutolaa madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari” (1-4-sinflar misolida) mavzusidagi pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) hamda 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (san’atshunoslik) ixtisosligi bo’yicha Ergashev Omonboy Turgunbayevichning “Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish texnologiyalari” mavzusidagi pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo’yicha ilmiy seminar o’tkaziladi. Ilmiy seminar xulosasiga ko’ra har ikkala tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

29. 2025-yilning 12-aprel kuni Qozog‘iston xalqi Assambleyasi Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniy birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyatining tashabbusi bilan O‘tror shahridagi Amir Temur memorial yodgorligi poyida Sohibqironning

689 yilligi munosabati bilan “Zamonaviy amirtemurshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San‘at nazariyasi va tarixi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc), Qozog‘iston xalqi Assambleyasining Do‘stlik elchisi Hulkar Hamroyeva “Sohibqiron yodi ellarni va dillarni birlashtirmoqda” mavzusidagi ma’ruza bilan ishtirok etdi.

30. 2025-yil 12-aprel kuni Qozog‘iston Milliy xoreografiya akademiyasida MDHga a‘zo davlatlarning gumanitar hamkorlik bo‘yicha Davlatlararo jamg‘armasi ko‘magida tashkil etilgan Yosh xoreograflarning xalqaro festival-tanlovida “Professional ta‘lim” yo‘nalishi, rus guruhi 2-kurs talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Yelizaveta Trashkovaga “Gulder” ansambli bosh baletmeysteri Sodiqova Anvara Aripovna mukofoti topshirildi.

31. Talaba-yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb etish, intellektual salohiyatini oshirish va ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish hamda ilg‘or tajribalardan keng foydalanish, ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shu bilan birga iste‘dodli yoshlarni respublikaning nufuzli ta‘lim tashkilotlari talabalari bilan tajriba almashishini tashkil etish maqsadida, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektorining 2025-yil 10-yanvardagi 3-i-son buyrug‘iga asosan, 2025-yil 15-aprel kuni “San‘at olami – talabalar nigohida” mavzusidagi talabalarning ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi.

32. 2025-yil 17-aprel kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Olima qizlar klubi”ning navbatdagi seminari bo‘lib o‘tdi. Seminarda Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovi hamda akademiyada o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanlarga tayyorgarlik ko‘rish

va ularni yuqori darajada o'tkazish bo'yicha klub raisi K.Paxrudinova axboroti, shuningdek, klub faollari Y.Tairova, D.Nomonova, S.Djuraqulova, O.Mahmudova, R.Axmedovalarning ma'ruzalari tinglandi.

33. 2025-yil 17-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'iga binoan, 15-aprel — “Madaniyat va san'at xodimlari kuni” munosabati bilan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining bir guruh talabalari: To'xtasinova Gulira'no Anvarjon qizi (4-kurs XJR ta'lim yo'nalishi), Kamalova Samira G'ofur qizi (2-kurs XJR ta'lim yo'nalishi), Xoshimova Gulasal Ahadjon qizi (2-kurs Professional ta'lim yo'nalishi), Agzamova Sevara Abdukayumovna (1-kurs San'atshunoslik ta'lim yo'nalishi) “Madaniyat va san'at fidokori” ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

34. 2025-yil 22-aprel kuni “El-yurt umidi” jamg'armasi tomonidan tashkil qilingan ZOOM platformasida “AQShning Syracuse universitetida ta'lim olish imkoniyatlari” mavzusidagi onlayn vebinarda akademiya mas'ullari va doktorantlari ishtirok etdi.

35. 2025-yil 23-aprel kuni Innavatsion rivojlanish agentligi tomonidan tashkil etilgan “Pivot-RP xalqaro ilmiy grantlar bazasidagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish” mavzusidagi seminarda akademiya mas'ullari va doktorantlari ishtirok etdi.

36. 2025-yilning 25-30 - aprel kunlari Bishkek shahrida bo'lib o'tgan “Delfiy Bishkek” III Ochiq Delfiy o'yinlarida turli mamlakatlardan iste'dodli yoshlar ishtirok etdi. Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'qituvchisi hamda ayni damda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Professional ta'lim yo'nalishi 3-kurs rus guruhi talabasi Urazbayeva Adelya Abduganiyevnaning o'quvchisi Baxtiyev Elyor — kichik yosh toifasida munosib ishtirok etib, “Klassik raqs” yo'nalishi bo'yicha II o'rin - kumush medal sohibi bo'ldi. Shuningdek, akademiya talabasi A.Urazbayeva tanlov tashkilotchilari tomonidan “Tashakkurnoma” bilan taqdirlandi.

37. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 28-apreldagi 151-son buyrug'iga muvofiq O'zbekiston davlat

xoreografiya akademiyasi bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Xudoynazarova Shaxzoda Tursunovna rahbarligida "Eshitishda va so'zlashuvda nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun raqs harakatlarining tizimli innovatsion majmuasini yaratish" mavzusidagi innovatsion va amaliy grant loyihasi tasdiqlandi.

38. 2025-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sammitida (2024-yil 8-oktabr) ilgari surilgan tashabbuslarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida, "MDH innovatsion rivojlanish forumi" tashkil etildi. Mazkur forumda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori boshchiligi doktorantlar ishtirok etdi.

39. 2025-yilning 26-28 - aprel kunlari Xivada IV Xalqaro baxshichilik san'ati festivali doirasida "II Turkiy dunyo madaniyati forumi" hamda "Yangi O'zbekistonda baxshichilik san'ati: zamonaviy tadqiqotlar va istiqbollar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda akademiya rektori SH.Toxtasimov boshchiligidan akademiya Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori N.Kasimov va "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida dotsenti X.Xamrayeva ishtirok etdi. Shuningdek, festivalning madaniy tadbirlarida akademiyaning 53 nafar talaba-yoshlari qatnashdilar.

40. 2025-yil 29-aprel kuni "Xalqaro raqs kuni" munosabati bilan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrasida mudiri, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Gulasal Usmanova hamda "Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari Islom Haydarov "Nihol" davlat mukofoti, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi, Ruxshona Rasulova Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi maxsus stipendiya sovrindorlari va Xalqaro tanlovlar g'olibi, 2-kurs talabasi Elizalar Nazarovalar MTRK "O'zbekiston" telekanalining "Assalom O'zbekiston" ko'rsatuvida ishtirok etdilar.

41. 2025-yil aprel oyida “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrası katta o‘qituvchisi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Jalilova Shirin Shuxratovnaning “Художественные принципы и узбекского сценического танца” nomli monografiyasi nashrdan chiqdi. Ushbu monografiya o‘zbek sahna raqs san’atining shakllanish va rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan.

42. 2025-yilning 28-aprel va 2-may kunlari Turkiya Respublikasi poytaxti Anqara shahrida turkiy davlatlar xoreografiya san’atiga bag‘ishlangan “Xalqaro turk dunyosi davlat balet maktablari Anqara festivali” bo‘lib o‘tdi. Tadbir mamlakatning musiqa va raqs ta’limi sohasidagi yetakchi ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Hacettepe universitetida joylashgan Anqara davlat konservatoriyasida bo‘lib o‘tdi. Festival turkiy mamlakatlardan xoreografiya ta’lim muassasalari rahbarlari, o‘qituvchilar va o‘quvchi-talabalarni birlashtirib, milliy an’analarni namoyish etish, professional va madaniyatlararo muloqot uchun muhim maydonga aylandi. Mazkur xalqaro festivalda O‘zbekiston Respublikasidan - O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Toxtasimov Shuxrat Maxmutovich, “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrası o‘qituvchisi Useinova Susanna Enverovna va “Xoreografiya jamoalari rahbari” yo‘nalishi 1-kurs talabasi Valiyeva Sevinch ishtirok etdilar. Festival doirasida TURKSOY - Turk madaniyati xalqaro tashkiloti, Turk dunyosi balet va xoreografiya ta’lim muassasalari rahbarlari yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori SH.Toxtasimov ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

43. 2025-yil 1-may kuni Qozog‘iston Respublikasining nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri - K.Jubanov nomidagi Aqtobe mintaqaviy universiteti dekani Janagul Kartbayeva akademiyaga tashrif buyurdi. Tashrif davomida akademiya va Aqtobe mintaqaviy universiteti o‘rtasida kelajakda talabalar almashinuv dasturi asosida hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, ilmiy va amaliy anjumanlarda oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlarining ishtirokini ta’minlash kabi bir qator hamkorlik aloqalarini olib borish masalalari to‘g‘risida ikki tomonlama muzokaralar olib borildi. Uchrashuv yakunida mehmonlar akademiya talabalarga malakali ta’lim olishi uchun yaratilgan sharoitlar, o‘quv

auditoriyalari, raqs xonalari hamda talabalar turar joylari bilan yaqindan tanishdilar.

44. 2025-yil 15-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug'i bilan tasdiqlangan rejaga muvofiq, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida "O'zbekiston va jahon xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi. Anjuman "Xoreografiya san'ati", "San'at nazariyasi va tarixi" hamda "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" yo'nalishlaridagi sho'balarda o'z ishini davom ettirdi. Anjuman ishida Rossiya, Belorusiya, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Misr, Ozarbayjon, Tojikiston va. Qozog'iston kabi o'ndan ziyod xorijiy mamlakatlarning yetakchi olimlari hamda soha mutaxassislari ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. Anjuman yakunida xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, ta'lim sifati, ilm-fanni yanada rivojlantirish, xoreografiya ta'limi sohasidagi xalqaro tajribani o'zlashtirish, innovatsion uslublarni joriy etish, professor-o'qituvchilar malakasini zamonaviy talablarga mos darajada oshirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohatlarga ijobiy baho berilib, istiqboldagi ustuvor vazifalar bo'yicha kelishib olindi.

45. 2025-yilning 20-21 - may kunlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Xalqaro Turkiy Madaniyat Tashkiloti (TURKSOY), O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "Navo" musiqiy telekanali hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi milliy raqs ijrochilari ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Mazkur ko'rik-tanlovda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Rejissyor-baletmeyster" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi Shavkatova Sabrina Rustamovna ham faol ishtirok etib faxrli 1-o'rin sohibi bo'ldi. Mazkur tanlovga ustoz-shogird an'alarini davom ettirgan holda "Xoreografiya jamoalari

rahbari” kafedrası dotsenti, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Yunusova Dilbar Muhammadovna tayyorladi.

46. 2025-yil 21-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyul “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-son qarori 9-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan rejaga muvofiq, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filialida “Nomoddiy ma’naviy meros vamiilliy qadriyatlarni abadiylashtirishda madaniyat vasan’atning o‘rni” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi. Anjumanning yalpi yig‘ilishida akademiya rektori, professor Shuxrat Toxtasimov anjuman ishtirokchilariga o‘z tabrigini yo‘lladi. Shuningdek, akademiya birinchi prorektori, professor Rushana Sultanova “Viloyat Oqilova ijodining shakllanishi” mavzusida ma’ruza qildi. Akademiyaning o‘ndan ortiq professor-o‘qituvchilari anjumanning sho‘ba yig‘ilishlarida ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar. Anjuman materiallari to‘plash shaklida nashr ettirildi.

47. 2025-yil 22-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.02 – Musiqa san’ati ixtisosligi bo‘yicha Bekmuratova Gulzada Tleumuratovnaning “Qoraqalpoq musiqa madaniyatidagi evolyusion jarayonlar (musiqali teatr taraqqiyotida)”mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkazildi. Seminar xulosasiga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

48. 2025-yil 22-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova Qarshi ixtisoslashtirilgan san’at maktabida “Aktyorlik va xoreografiya san’ati” bo‘limi talabalarining hisobot konsert dasturini tayyorlashda ishtirok etdi. Konsertda milliy va zamonaviy uslubdagi sahna chiqishlari va raqslar, bo‘lim talabalari ijrosidagi sahna ko‘rinishlaridan parchalar namoyish etildi. Konsert yig‘ilganlarda o‘zgacha kayfiyat va katta taassurot qoldirdi.

49. 2025-yil 28-may kuni Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti bilan hamkorlikda “San’at yoshlar nigohida XIV” mavzusida magistrantlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 2-kurs magistranti Nigora Sidikova “Bo‘lajak xoreografiya jamoasi rahbarining kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari” mavzusidagi ilmiy ma‘ruzasi bilan ishtirok etdi.

50. 2025-yilning 28-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya pedagogikasi” ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Trashkova Yelizaveta O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bo‘lib o‘tgan “Astana stars” (“Ostona yulduzlari”) Xalqaro festivalida yakkaxon raqs ijrosi bilan muvaffaqiyatli ishtirok etib, Gran-pri sohibasi bo‘ldi.

51. 2025-yil 29-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.07 – Teatr san’ati ixtisosligi bo‘yicha Karimova Muqaddas Abdusamatovnaning “Folklor – etnografiya tomoshalarida rejissuraning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo‘yicha Inatullayev Baxromjon Boqijonovichning “Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari madaniyatida etnik mansublik va integratsiya jarayonlari” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkaziladi. Seminar xulosasiga ko‘ra, har ikkala tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

52. 2025-yil 30-may kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova “Qadriyatlari qadrlangan yurt” mavzusidagi folklor-etnografik jamoalarining viloyat ko‘rik-festivalida hakamlar hay‘ati a‘zosi sifatida ishtirok etdi. Qashqadaryo viloyatining Kitob shahrida bo‘lib o‘tgan festivalda Qashqadaryo viloyatining barcha hududlaridan 15 ta jamoa ishtirok etdi. Etnografik chiqishlar, raqslar, qo‘shiqlar namoyish etildi, ular hududning an‘anaviy madaniyatining maftunkor olamini ochib berdi. Festival doirasida “Qashqadaryo raqs san’atining hududiy xususiyatlari” mavzusidagi

ilmiy- tadqiqoti doirasida festival ishtirokchilari bilan suhbatlar o'tkazilib, Qashqadaryo viloyatining turli hududlaridagi raqs harakatlarining xususiyatlari muhokama qilindi. Shuningdek, joriy yilning may oyida Yuliya Tairova "Qashqadaryo raqs san'atining hududiy xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi doirasida Qarshi ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatida bo'lib, maktab direktori S.Haydarova va o'qituvchilari bilan dissertatsiya ishi yuzasidan suhbatlashdi hamda amaliy raqs mashg'ulotlarida ishtirok etdi. Suhbat chog'ida mintaqa raqs madaniyatining o'ziga xosligini saqlash, shuningdek, o'zbek raqs san'ati rivoji bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashildi.

53. 2025-yil 30-may kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Olima qizlar klubi"ning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Davlat stipendiyalariga nomzod talaba-qizlarning tayyorgarliklari masalalari haqida ma'lumotlar va tavsiyalar berib o'tildi. Shuningdek, startap loyihalar ishlab chiqish bo'yicha kelgusida o'tkaziladigan seminar trening rejalashtirilib olindi. Yig'ilishda klub raisi K.Paxrudinova axboroti hamda klub faollari: A.Mo'minova, S.Djuraqulova, SH.Erkinboyeva, E.Trashkova va R.Axmedovalarning ma'ruzalari tinglandi. "Olima qizlar klubi" tomonidan kelgusida bajarilishi kerak bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan kelishib olindi.

54. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/6-son qaroriga muvofiq, san'atshunoslik fanlari bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari ro'yxatiga 17.00.09 – "Xoreografiya san'ati" ixtisosligi kiritilib, ixtisoslik pasporti tasdiqlandi.

55. 2025-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'iga binoan, fidokorona mehnati va ijodiy yondashuvi bilan ajralib turgan yosh iste'dodlarni rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining bir guruh talabalari: Abaqulov Asadbek Inobiddin o'g'li (Xoreografiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs rus guruhi), Revenko Zlata Alekseyevna ("Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi 1-kurs rus

guruhi) hamda Toshkenboyeva Rayhona Ulug‘bek qizi (“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs rus guruhi) talabalari “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandilar.

56. 2025 -yilning may oyida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Karomat Paxrudinova Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik tanlovi doirasida tashkil etilgan, “Eng yaxshi xizmatlari uchun” xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida “O‘zbek milliy raqs san’ati” nomli ilmiy maqolasi bilan ishtirok etib, tanlovning maxsus ko‘krak nishoni, sertifikat va tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

57. O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari nomzodi Jomonov Ravshan Oripovichning 23-aprel 2025-yil “Ma’rifat” gazetasining “Voqelikka munosib sharh yoki munosabat” rukni ostida e’lon qilingan, “Yozuv amaliyotidagi yana bir muammo: ayrim ruscha ism-familiyalar imlosi” nomli maqolasi, mazkur gazetaning “Faslning eng yaxshi ijodkori” tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, tahririyatning faxriy yorlig‘i va pul mukofoti bilan taqdirlandi.

58. 2025-yilning 12-13-iyun kunlari O‘zbekistonning Misrdagi elchixonasi, Qohira universiteti, Jaloliddin Manguberdi fondi hamkorligida Qohira davlat kutubxonasida “O‘zbekiston va Misr: qadim tamaddunlar chorrahasida madaniyat, san’at, tarix taraqqiyoti”, “Sayfiddin Qutuzxon tarixining yangi sahifalari” mavzularida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori, O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova, O‘zDXA “San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi, filologiya fvnleri doktori (DSc) Hulkar Hamroyevalar ma’ruza bilan ishtirok etishdi. Anjuman doirasida Qohirada ingliz va arab tillarida chop etilgan “Xorazm “Lazgi” raqsi falsafiy-estetik hodisa” (G.Matyoqubova, H.Hamroyeva), “Xorazm raqs maktabi: tarixi va tadqiqi” (H.Hamroyeva) nomli monografiyalarining taqdimoti o‘tkazildi. Shunigdek, O‘zDXA Urganch filiali talabasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori R.Sapayeva, O‘zDXA bitiruvchisi, “Lazgi” Xalqaro festivali g‘olibasi O.Davletovalar ijro etgan raqslarni

Misr jamoatchiligi iliq kutib oldi. Xalqaro anjuman yakunida G.Matyoqubova va H.Hamroyeva “Yilning eng yaxshi olimi” nominatsiyasi bilan taqdirlandilar.

59. 2025-yil 13-iyun kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining “Olima qizlar” klubi tashabbusi bilan xalqaro loyihalar (World Bank, GIZ, UNDP) bo‘yicha konsultant-maslahatchi, spiker Barnoxon Artikxodjayeva ishtirokida “Xalqaro va startap loyihalar tayyorlash usullari” mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Mazkur seminarda akademiyaning professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar, tadqiqotchilar hamda ilm-fanga qiziquvchi talaba-yoshlar ishtirok etdi. Seminar-trening bahs-munozaralarga boy va qizg‘in tarzda olib borilishi bilan bir qatorda, barcha tinglovchilarni startap loyihalar hamda xalqaro loyihalar yaratishga ilhomlantirdi.

60. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 13-iyundagi 371/1-son bayonnomasiga asosan Xolmuradova Mexrinisa Ibroximovnaga “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha “dotsent” ilmiy unvoni berildi.

61. 2025-yil 16-iyun kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.02–Musika san’ati ixtisosligi bo‘yicha G‘afurova Sayyora Akmalovnaning “Fortepiano konsertlari talqini ijrochilik san’ati fenomeni sifatida (Pianinochi va dirijyorlik faoliyati kontekstida)” san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), 2025 yil 18-iyun kuni 17.00.01–Teatr san’ati ixtisosligi bo‘yicha Umarov Kamoliddin Xusniddin o‘g‘lining “Zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda o‘zbek teatrining o‘rni (1991-2023)” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda 17.00.01–Teatr san’ati ixtisosligi bo‘yicha Raximova Charos Xamidulla qizining “Farg‘ona viloyat teatrlarida milliy dramaturgiyaning sahna talqini (1991-2021)” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkaziladi. Ilmiy seminar xulosasiga ko‘ra, mazkur tadqiqot ishlari himoyaga tavsiya etildi.

62. 2025-yil 21-iyun kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “Xoreografiya pedagogikasi” kafedrası mudiri, katta o‘qituvchi Sultangirova Irina Radikovna “Toshkent” telekanalining “Poytaxt mehmoni” dasturi mehmoni bo‘ldi.

63. 2025-yil 23-iyun kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi magistrantlari Sulaiya Aerkin, Ravshan Chariyev, Oynura Mahmudovalar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tashkil etilgan "San'at va madaniyatda ilm-fan vaamaliyot uyg'unligi" mavzusidagi yosh olimlar va magistrantlarning Respublika ilmiy-amaliy anjumanida o'z ma'ruzalari bilan faol ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandilar.

64. 2025-yil 25-iyun kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda magistratura mutaxassisligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari tanlovining birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Akademiya rektorining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan komissiya tomonidan talabgorlarning hujjatlari atroflicha o'rganilib, ular bilan Davlat tili, Xorijiy tillar va O'zbekiston tarixi fanlari bo'yicha suhbat o'tkazildi. Komissiya xulosasiga ko'ra, yuqori ko'rsatgichlarni egallagan talabgorlarning nomzodlari respublika bosqichiga tavsiya etildi. Shuningdek, mazkur masala akademiya Kengashining 2025-yil 4-iyuldagi yig'ilishida muhokama etilib, talabgorlarning nomzodlari respublika bosqichiga tavsiya etilgan.

65. 2025-yilning 27-29-iyun kunlari Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish, boshqaruv, rejalashtirish, moliyalashtirish va natijadorlik mexanizmlarini takomillashtirish orqali mazkur yo'nalishdagi chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida Namangan viloyatida "Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha ustuvor vazifalar" mavzusida o'quv-seminar bo'lib o'tdi. Mazkur seminarda prorektor N.Kasimov ishtirok etdi.

66. 2025-yil iyun oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" o'qituvchisi Useinova Susanna Enverovna bilan bo'lgan suhbat "Toshkent" telekanalining "Salom Toshkent" ko'rsatuvida efirga

uzatildi. Suhbatda u o'z ijod yo'li, kasbdagi rivojlanishi, xoreograf sifatida shakllanishida muhim o'rin tutgan ustozlari haqida so'zlab, o'zbek milliy raqs san'atining boy oltin merosini asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazishda beqiyos mehnati beqiyos bo'lgan o'zbek raqsi asoschilariga alohida to'xtalib o'tdi. Shuningdek, ko'rsatuvda bo'lajak raqs ustalari ilm olayotgan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi faoliyati va ahamiyati haqida so'zladi.

67. 2025-yilning iyun oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" hamda "Xoreografiya pedagogikasi" kafedrasida professor-o'qituvchilari Gulasal Usmanova, Olga Kamarova, Shavkat Ataxanov, Gulishod Abdiyeva va Lola Sultonovalar tomonidan Scopus bazasidagi xalqaro jurnalda "Scientific research in the field of choreography art in Uzbekistan" nomli hamda "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrasida professor-o'qituvchilari Gulasal Usmanova, O'g'iloy Muhamedova, Maloxat Maxmudova, Dilbar Yunusova, Erkinoy Saitovalar tomonidan Scopus bazasidagi xalqaro jurnalda "The establishment and stages of development of national dance schools" nomli maqola chop etildi.

68. 2025-yilning iyun oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrasida o'qituvchisi Jalilova Shirin Shuxratovna "Scientific Academy" Ilm-m'arifat markazining 2025-yil 18-iyundagi 65-son buyrug'iga asosan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan "Yuksak ehtirom" xalqaro esdalik ko'krak nishoni va sertifikati bilan taqdirlandi.

69. 2025-yilning iyun oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari nomzodi Jomonov Ravshan Oripovichning "O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imloni takomillashtirish tamoyillari" nomli monografiyasi chop etildi.

70. 2025-yilning iyun oyida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori v.b., falsafa fanlari doktori (DSc) Rustam Sharipov, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc) Hulkar Hamrayeva, Qozog'iston Respublikasi

Jumabek Tashenev nomli universitet Xalqaro aloqalar departamenti direktori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Shahlo Naraliyevlar hammuallifligida "O'zbek tili" darsligi chop etildi.

71. 2025-yilning iyun oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori, O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova hamda O'zDXA "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrası professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc) Hulkar Hamrayevlar tomonidan "Khorezm dans school: History and research" nomli monografiyasi Qohira shahrida ingliz va arab tillarida nashrdan chiqdi. Shuningdek, Hulkar Hamroyevaning "Khorezm "Lazgi" dance philosophical aesthetic phenomenon" nomli monografiyasi Qohira shahrida ingliz va arab tillarida nashr etildi.

72. 2025-yil 21-iyul kuni 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova Raqamli texnologiyalar vazirligida bo'lib o'tgan "O'zbekistonda IT va raqamli ta'lim landshaftini yaxshilash: tadqiqot bosqichi" mavzusidagi ilmiy forumda ishtirok etdi. Forum mamlakatimizda raqamli ta'limning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning doirasida ekspert ma'ruzalari, panel muhokamalari, loyiha taqdimotlari va raqamlashtirishdagi muammolar hamda imkoniyatlar muhokamasiga bag'ishlangan sessiyalar o'tkazildi. Asosiy e'tibor raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va innovasion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga qaratildi.

73. 2025-yilning 28-iyul kuni 1-kurs doktoranti Yuliya Tairova Raqamli texnologiyalar vazirligi va "Startup-Garage" tomonidan tashkil etilgan "Pitch & Rise: Xotin-qizlar startap maydonida" mavzusi doirasida o'tkazilgan tadbir kechasida ishtirok etdi. Tadbir ishtirokchilari startap ekotizimiga ishonch bilan kirib borish, innovatsion g'oyalarini ishlab chiqish va taqdim etishda zarur bo'lgan bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Tadbir dasturi yetakchi mutaxassis - pitchingning mahorat darsi bilan yanada mazmunli va qiziqarli o'tdi. Unda ishtirokchilarning o'z startap g'oyasini taqdim etish uchun noyob imkoniyatlar yaratildi. Tadbir yangi g'oyalarning paydo bo'lishi va tadqiq qilinishi uchun

muhim ahamiyatga ega bo'lgan foydali ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini berdi.

74. 2025-yil 3-avgust kuni 1-kurs doktoranti Yuliya Tairova joriy Yoshlar siyosati dasturini amalga oshirish doirasida University of Management and Future Technologies universitetida o'tkazilgan "YOUTH DIPLOMATIC CONFERENCE-2025" xalqaro ilmiy anjumanida ishtirok etdi. Tadbirda 150 dan ortiq davlat vakillari, jumladan, Turkiya, AQSH, Tojikiston, Turkmanistondan kelgan delegatlar ishtirok etdi. Anjuman xalqaro munosabatlar, madaniyat, ta'lim kabi mavzularda baxs-munozaralar bilan qizg'in o'tdi. Ishtirokchilar sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

75. 2025-yil 15-avgust kuni "Xoreografiya san'ati" fakulteti dekani Mexrinisa Xolmuradova hamda akademiya bitiruvchilari Respublika va Xalqaro tanlovlar g'oliblari: "Nihol" davlat mukofoti, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori Islom Haydarov, Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi maxsus stipendiyalari sovrindori Ruxshona Rasulovalar MTRK "O'zbekiston" telekanalining "Assalom, O'zbekiston" teledasturida ishtirok etdilar.

76. 2025-yilning 19-20 - avgust kunlari Samarqand shahrida Respublika ko'zi ojizlar jamiyati, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Samarqand viloyati hokimligi bilan hamkorlikda istiqlolning 34 yilligiga bag'ishlab "Ijod forumi" o'tkazildi. "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan g'oyani o'zida mujassam etgan mazkur forumda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasini professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc) H.Hamrayeva "Yosh qalamkashlarning iste'dodini yuzaga chiqarish va kamol toptirish bo'yicha umummiqyosida shakllangan an'analar, bu boradagi yo'l-yo'riq va tavsiyalar" mavzusidagi ma'ruza bilan ishtirok etdi.

77. 2025-yil 26-avgust kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik ixtisosligi bo'yicha Ikramov Sayfulla Turg'unovichning "Madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlarda ijtimoiy fikrini shakllantirishdagi o'rni" mavzusida san'atshunoslik fanlari

bo'yicha, 17.00.01 – Teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha Mamatqulov Bexzod Maxammadismon o'g'lining “Teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari” mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha, 27-avgust kuni 17.00.02 – Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha Xaydarov Xumoyun Samijonovichning “O'zbek musiqasi ta'limi va uning rivojlanish mezonlari” mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha, 17.00.02 – Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha Djurabekova Saodat Zarifbekovnaning “O'zbekistonda organ musiqa san'ati” mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha, 28-avgust kuni 17.00.02 – Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha Rasulov Ma'rufjon Ma'murjon o'g'lining “O'zbek maqomoti usullar tizimining turkumiylik masalalari (Buxoro Shashmaqomi misolida)” mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy seminar o'tkazildi. Ilmiy seminar xulosasiga ko'ra, ushbu tadqiqot ishlari himoyaga tavsiya etildi.

78. 2025-yilning avgust oyida “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasida o'qituvchisi Susanna Useinova Qozog'iston Respublikasi Shimkent shahrida joylashgan Qozog'iston xalqi assambleyasida o'tkazilgan “Dance Battle” xalqaro raqs tanlovida hakamlar hay'ati a'zosi sifatida ishtirok etdi.

79. 2025-yilning avgust oyida navbatdagi ilmiy ekspeditsiya doirasida 1-kurs tayanch doktoranti Karomat Paxrudinova Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida bo'ldi. Ekspeditsiyaning asosiy maqsadi safar uyushtirilgan hududning qadimiy madaniyat izlarini, xususan, Qoraqalpog'istonning tarixiy manbalarini o'rganishdan iborat bo'ldi. Safar davomida Markaziy Osiyodagi eng yirik muzeylardan biri — jahonga mashhur rus avangard kolleksiyasi, qoraqalpoq xalqining tarixiy-madaniy merosi, dekorativ-amaliy san'ati va etnografik asarlari saqlanayotgan I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi, shuningdek, qoraqalpoq xalqining etnogenezi, an'analari va taraqqiyot bosqichlarini o'rganishga ixtisoslashgan Qoraqalpoq davlat tarix muzeyidagi tarixiy eksponatlar ko'zdan kechirilib, o'rganildi. Bu kabi ekspeditsiyalar san'at tarixi, tarix va madaniyatshunoslik sohasidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilib, olingan ma'lumotlardan o'quv jarayonida

hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish rejalashtirildi. Mazkur safar doirasida O'zbekiston mintaqasining madaniy merosi hamda Qoraqalpog'iston hududidagi muqaddas maskanlar o'rtasida qiyosiy tahlillar olib borilib, ilmiy kuzatishlar orqali madaniy aloqalarning umumiy ildizlari va o'xshash jihatlari aniqlandi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim xulosalar tayyorlandi.

80. 2025-yilning avgust oyida navbatdagi ilmiy ekspeditsiya doirasida 2-bosqich tayanch doktoranti Aziza Muminova Boku shahrida bo'ldi. Ilmiy ekspeditsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, safar uyushtirilgan hududning qadimiy madaniyat izlarini, xususan, zardushtiylik dinining tarixiy manbalarini o'rganishdan iboratdir. Ekspeditsiya davomida "Atashgoh" yong'in ibodatxonasi, "Yanar dag'" tabiiy olov joyi kabi muqaddas maskanlar ziyorat qilindi. Shuningdek, Boku Xoreografiya akademiyasining faoliyati bilan yaqindan tanishuv amalga oshirildi, ijodiy va ilmiy jarayonlar kuzatildi. Ushbu safar doirasida O'zbekistonning Surxondaryo mintaqasida joylashgan zardushtiylik yodgorliklari bilan Ozarbayjon hududidagi muqaddas maskanlar o'rtasida qiyosiy tahlillar olib borildi. Ilmiy kuzatishlar orqali madaniy aloqalarning umumiy ildizlari va o'xshash jihatlari aniqlanib, kelgusidagi ilmiy-tadqiqotlar uchun muhim xulosalar qayd etildi. Mazkur ekspeditsiya O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy-ilmiy muloqotlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

81. 2025-yilning avgust oyida "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida katta o'qituvchisi, 2-kurs mustaqil izlanuvchisi Madina Muxamedova Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) miqyosidagi xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik- tanlovi doirasida tashkil etilgan, "Yosh tadqiqotchi" xalqaro ilmiy-amaliy tanlovida "O'zbek sahnaviy raqs san'ati merosi" nomli ilmiy maqolasi bilan ishtirok etib, tanlovning maxsus ko'krak nishoni, sertifikat va tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

82. 2025-yilning avgust oyida Mustaqilligimizning 34-yillik bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining tegishli buyrug'iga binoan, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tyutori Axmedova Risolat hamda "Zamonaviy raqs" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Utelova Aysha "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

83. 2025-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34-yilligiga bag‘ishlab, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutida bo‘lib o‘tgan “Zakovat” intellektual o‘yinida institut harbiy xizmatchilarining turmush o‘rtoqlari va Qurolli Kuchlar xodimlari qatorida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova jamoa tarkibida ishtirok etdi. Jamoalar murakkab masalalarni yechish va savollarga javob berish orqali bilimdonlik, zukkolik va birdamlikni namoyish etdilar. Yorqin, jamoaviy ruhni mustahkamlovchi, intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi va iliq, do‘stona muhit yaratgan tadbir so‘ngida barcha ishtirokchilarga esdalik sovg‘alari va diplomlar topshirildi.

84. 2025-yil 14-sentabr kuni “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasida o‘qituvchisi Useinova Susanna Enverovna “Bolajon” davlat telekanali orqali efirga uzatiladigan “Bolajon shou” televizion ko‘rik-tanlovida hakamlar hay‘ati a‘zosi sifatida ishtirok etdi.

85. 2025-yil 15-sentabr kuni O‘zR Oliy Majlis Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasining 2022-yil 8-noyabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi va uni 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida”gi 128-son qarori 5-bandi va O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “OTMLarida ilm-fan sohasida muvaffaqiyatga erishgan mashxur ayollar nomi bilan ataluvchi stipendiyani joriy etish to‘g‘risida”gi 2022-yil 22-dekabrdagi 422-son buyrug‘i, O‘zDXA rektorining 2023-yil 10-yanvardagi “Akademiya Mukarrama Turg‘unboyeva nomi bilan ataluvchi stipendiyani joriy etish to‘g‘risida”gi 2-I-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, akademiya Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi tavsiyasi va akademiya rektorining 2025-yil 15-sentabrdagi 04-04/66-T-son buyrug‘iga asosan, 2025/2026-o‘quv yili uchun “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi maxsus stipendiya” “Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi, o‘zbek guruhi, 3-kurs talabasi Abdullayeva Gulchehra Sa’dulla qiziga berildi.

86. 2025-yilning sentabr oyida 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova “Qashqadaryo viloyati raqs folklori: Arxaik marosimlardan sahna san’atigacha” nomli ilmiy maqolasi bilan xalqaro miqyosda e’tirofga sazovor bo’ldi. Mazkur maqola nufuzli “Uchinchi Renessans ziyolilar” almanaxida, AQSH va Hindiston hamkorligidagi “Taameer Publications” nashriyoti tomonidan chop etildi. Bu yutuq doktorantning o’zbek xoreografik merosi bo’yicha olib borayotgan ilmiy izlanishlarining ahamiyatini namoyon etib, Qashqadaryo madaniy an’analarini o’rganish va targ’ib etishga qo’shgan salmoqli hissasini ko’rsatadi.

87. 2025-yilning 19-20 - sentabr kunlari Qozog‘iston Respublikasining Shimkent shahrida, Qozog‘iston xalq Assambleyasi, Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniy birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyati, Jumabek Tashenev nomli universitet, M.Avezov nomli universitet, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, Andijon davlat pedagogika institutlari bilan hamkorlikda Qozog‘iston xalq Assambleyasi, Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniy birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyatining 30 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazildi. Forumning birinchi kuni J.Tashenev nomidagi universitetda “Qozog‘iston xalqi Assambleyasining Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashdagi roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bilan boshlandi. Unda O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston Respublikalaridan kelgan olimlar va tadqiqotchilar qatnashdi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada bir qancha risolalar, jumladan, Qozog‘iston xalqi Assambleyasining O‘zbekistondagi do‘stlik elchisi, O‘zDXA “San’at nazariyasi va tarixi” kafedra professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc) Hulkar Hamroyevaning “Dunyoni do‘stlik qutqaradi nomli risolasi taqdimoti ham bo‘lib o‘tdi. Abay nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog‘ida “O‘zbek xalqining tili, madaniyati va an’analari kuni” bayrami bilan davom etgan xalqaro Forumning ikkinchi kunida H.Hamroyeva “Mintaqada umummilliy totuvlikni mustahkamlashning madaniy – ma’rifiy tamoyillari. (Qozog‘iston o‘zbeklari etnomadaniy birlashmalari “Do‘stlik” hamjamiyati misolida)” mavzusida nutq so‘zladi. Ikki kun davom etgan xalqaro Forumda O‘zDXA Urganch filiali

professori, O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova, filial katta o'qituvchisi Dilnoza Mavlonova, O'zDXA san'atshunoslik ta'lim yo'nalishi magistrantlari Ra'no Karamova, Surayyo Ismatova va 4-kurs talabasi Jamshidbek Mirsoliyev, O'zDXA Urganch filiali 4-kurs talabasi Risolat Sapayevalar ishtirok etishdi. O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor SH.Toxtasimov, O'zDXA Urganch filiali professori, O'zbekiston xalq artisti G.Matyoqubova, O'zDXA "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida professori v.b, f.f.d.(DSc) H.Hamroyevalar Qozog'iston xalqi Assambleyasining yubiley medali bilan taqdirlandilar.

88. 2025-yil 23-sentabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida joylashgan Qarshi yoshlar texnoparkida tashkil etilgan "Startaplar festivali"da ishtirok etdi. Mazkur festival O'zbekistonning 12 ta hududini qamrab olib, yosh olimlar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalarni namoyish etish uchun noyob platforma bo'ldi. Taqdim etilgan ishlanmalar ilmiy ahamiyati va amaliy salohiyati bilan ajralib turib, ishtirokchilarning ijodiy hamda intellektual salohiyatini yorqin aks ettirdi.

89. 2025-yil 23-sentabr kuni "Eshitishida va so'zlashuvida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun raqs harakatlarining tizimli innovatsion majmuasi" mavzusidagi amaliy-innovatsion grant loyihasi doirasida Shaxzoda Xudoynazarova boshchiligidagi ilmiy-amaliy tadbir tashkil etildi.

90. 2025-yilning 23-28 - sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Startap loyihalari va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" PQ-357-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "ICT WEYek UZBEKISTAN - 2025" xalqaro tadbiri doirasidagi "Startup and Venture" sammitida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professor-o'qituvchilari va doktorantlari faol ishtirok etdilar.

91. 2025-yil 24-sentabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.09 – "Raqs san'ati" ixtisosligi bo'yicha Aziza Muminova

Azizaning “Фольклорные танец Сурхандаринского региона: традиции и инновации” mavzusidagi dissertatsiyasi bo‘yicha ilmiy seminar o‘tkazildi.

92. 2025-yil 27-sentabr kuni O‘zbekiston davlat madaniyat va san‘at instituti tashabbusi bilan “Renessans” kino uyining majlislar zalida “San‘atshunoslik va madaniyatshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman tashkil etildi. Tadbirda san‘at va madaniyatshunoslik sohasidagi zamonaviy muammolar muhokama qilindi. Unda nafaqat o‘zbekistonlik olimlar, balki Ozarbayjon, Rossiya, Qozog‘iston, Koreya va Qirg‘izistondan tashrif buyurgan san‘atshunos olimlar ham ishtirok etib, o‘z ilmiy qarashlarini taqdim etdilar. Bu esa mazkur anjumanning xalqaro miqyosdagi ahamiyati va nufuzidan dalolat beradi. Anjumanda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Shuhrat Toxtasimov boshchiligidagi bir guruh professor-o‘qituvchilar ham qatnashdilar. “San‘at nazariyasi va tarixi” kafedrasi v.b. professori, filologiya fanlari doktori (DSc) H.Hamroeva “O‘zbek milliy raqs san‘atining badiiy-estetik va falsafiy-etnografik xususiyatlari” mavzusida, shu kafedra mudiri, dotsent SH.Umarov esa “Temuriylar davri musiqa san‘atining taraqqiyot tamoyillari” mavzusida ma’ruza taqdim etdilar. Anjuman ilmiy bahs-munozaralarga boy o‘tdi va ko‘plab dolzarb g‘oya va takliflar ilgari surildi.

93. 2025-yil 28-sentabr kuni 1 kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova nufuzli ilmiy-ma’rifiy markaz — “Scientific Academy” tomonidan ta’sis etilgan “Ilm-Fan ziyosi” sertifikatini va esdalik haykalchasi bilan taqdirlandi. Ushbu mukofot Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) doirasida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ilmiy faoliyatdagi yuksak yutuqlar, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuv hamda bilim va tajriba almashish jarayonida namoyon etilgan yetakchilik fazilatlari uchun beriladi.

94. 2025-yil 28-sentabr kuni 1 kurs tayanch doktoranti Karomat Paxrudinova 1-oktabr — “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovi doirasida o‘tkazilgan rasmiy taqdirlash

marosimida “Ta’lim iftixori” nominatsiyasida “Raqs teatri: plastika va dramaturgiya sintezi” nomli ilmiy maqolasi bilan ishtirok etdi va tanlovning maxsus statuetkasi, guvohnoma va sertifikat bilan taqdirlandi.

95. 2025-yilning 28-sentabrida “Xoreografiya pedagogikasi” stajyor-o’qituvchi Levitskaya Mariya Andreyevna “Toshkent” telekanalining “Poytaxt mehmoni” dasturi mehmoni bo’ldi.

96. 2025-yilning sentabr oyida “San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasida katta o’qituvchisi, 2-kurs mustaqil izlanuvchi Madina Muxamedova “Yangi O’zbekistonda innovatsion tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi “Intelktual izlanuvchi” xalqaro ilmiy-amaliy ko’rik- tanlovida “O’zbek raqs san’ati merosi bugungi kunda” nomli ilmiy maqolasi bilan ishtirok etib, tanlovning maxsus ko’krak nishoni, sertifikat, tashakkurnoma va qimmatbaho sovg’a bilan taqdirlandi.

97. 2025-yil 4-oktabr kuni Toshkent va Samarqand shaharlarida bo’lib o’tgan “Yangi O’zbekiston iqtidorli” nomli Xalqaro xoreografiya ko’rik-tanlovida O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bo’lim boshlig’i, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori Shahzoda Xudoynazarova hakamlar hay’ati raisi sifatida ishtirok etdi.

98. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 7-oktabrdagi 387-son buyrug’iga asosan dotsent I.G.Gorlinaning Xoreografiya ta’lim yo’nalishi uchun “Искусство балетмейстра” nomli o’quv qo’llanmasiga, san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Usmanova Gulasal Normuxammad qizining “Xoreografiya” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Baletmeysterlik san’ati” o’quv qo’llanmasiga, dotsenti Abduxakimova Durdona Mamadjanovnaning “Xoreografiya” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan “Xoreografning sahnalashtirish amaliyoti” o’quv qo’llanmasiga O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2025-yil 2-apreldagi 162-sonli buyrug’iga asosan, vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalari

faoliyatini yanada samarali tashkil etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shuningdek, zarur bo'lgan asosiy vositalar, inventarlar, cholg'u asboblari va o'quv jarayoni uchun muhim fan adabiyotlarini nashr ettirish maqsadida, Usmanova Gulasal Normuxammad qizi hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Qaxxorov Erkin Alimovich tomonidan tayyorlangan "O'zbek raqsini o'rganish uslubiyoti: Andijon polkasi" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasi nashr etildi.

99. 2025-yilning 9-10 - oktabr kunlari "InnoWeyek-2025" — "Chegarasiz g'oyalar" shiori ostida o'tkazilgan innovatsion g'oyalar xalqaro haftaligida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi ustozlari, doktorantlari va talabalari jarayonlarda faol ishtirok etdilar.

100. 2025-yilning 5-oktabridan 5-noyabriga qadar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari hisobiga 2026-yil uchun oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga 17.00.09 – "Xoreografiya san'ati" ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (Phd)ga tanlov asosida qabul e'lon qilindi.

101. 2025-yil 7 oktabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova Rossiya hamkorlik agentligining (Rossotrudnichestvo) O'zbekistondagi vakolatxonasi huzuridagi Rossiya fan va madaniyat markazida o'tkazilgan "Kelajak olimlari" nomli ilmiy-ma'rifiy tadbirda ishtirok etdi. Tadbir doirasida Rossiya Fanlar akademiyasi professorlari, olimlari va ilmiy tadqiqotchilarining ochiq ma'ruzalari tashkil etildi. Xalqaro loyiha "Kelajak olimlari" A.S.Pushkin nomidagi rus tili davlat instituti tomonidan Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda "Nauka.rf" portali ko'magida tashkil etilgan. Tadbir yakunida Y.Tairova loyihada faol ishtiroki uchun sertifikat va esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.

102. 2025-yil 8-oktabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.02 – Musiqa san'ati ixtisosligi bo'yicha Muminova Zulfiyaxon Ibrohimovnaning "Toshkent dutor ijrochilik an'analari" mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bo'yicha ilmiy seminar o'tkazildi. Seminar xulosasiga ko'ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

103. 2025-yilning 10-oktabr kuni 1 kurs tayanch doktoranti Yuliya Toirova Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamda “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida tashkil etilgan “O‘zbekiston san’atshunosligining dolzarb muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiyada ishtirok etdi. Anjumanda tadqiqotchi “Qashqadaryo mintaqasi raqs madaniyatining vizual ramziyligi” mavzusida ilmiy ish taqdim etdi. Konferensiya doirasida O‘zbekiston san’atshunosligining bugungi holati, nazariy va amaliy masalalar, shuningdek, milliy san’at rivojining yangi yo‘nalishlari va istiqbollari muhokama qilindi. Bunday ilmiy anjumanlar yosh olimlarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda milliy san’atshunoslikni xalqaro ilmiy maydonga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

104. 2025-yilning 6-12 - oktabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo‘lib o‘tgan “Molodoy balet mira” Yuriy Grigorovichning X Xalqaro tanlovida 4-kurs talabasi Abdugappor Kuchkarov faxrli 3-o‘rin g‘olibi bo‘ldi.

105. 2025-yilning 10-13 - oktabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan yosh talantlarning iste’dodini yuzaga chiqarish maqsadida o‘tkazilgan “Marhabo talantlar” respublika ko‘rik-tanlovida, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori Shahzoda Xudoynazarova xoreografiya yo‘nalishi bo‘yicha hakamlar hay’ati raisi sifatida ishtirok etdi.

106. 2025-yil 13-oktabr kuni 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova Turkiyaning Baygenç Yayıncılık nashriyoti (Alaniya shahri) tomonidan taqdim etilgan “Ishtirok etish sertifikatı” (Katılım Belgesi) bilan taqdirlandi. Uning “Madaniyatlararo almashinuvda raqsning o‘rni: zamonaviy dunyoda Qashqadaryo madaniy merosi” mavzusidagi ilmiy maqolasi “Ziyo istagan ziyolilar” nomli xalqaro to‘plamga kiritildi. Mazkur to‘plam O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi madaniy hamda adabiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan loyiha doirasida chop etilgan. Alfaraganus Universitetida bo‘lib o‘tgan to‘plam taqdimoti Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti hamda “AFU pharm infinity” klubi

hamkorligida tashkil etildi. Ushbu tadbir ikki mamlakat yoshlarini birlashtirib, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi do'stlik ko'prigiga aylandi hamda xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlashning yorqin namunasi bo'ldi.

107. 2025-yil 18-oktabr kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zRFA o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, Javoharla'l Neru universiteti, Jumabek Tashenov nomidagi universitet hamda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamkorlikda Qo'qon universitetida "Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash tamoyillari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, shuningdek, zamonaviy o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili A'zam O'ktam tavalludining 65 yilligiga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.

108. 2025-yil 20-oktabr kuni 17.00.08 – San'at nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo'yicha Umarxodjayeva Mamura Karimbayevnaning "O'zbekiston qo'g'irchoq san'atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari (XX asrning 30-yillari – XXI asr boshlari)" mavzusida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o'tkazildi. Ilmiy seminar hulosasiga ko'ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

109. 2025-yil 23-oktabr kuni 17.00.09 – "Raqs san'ati" ixtisosligi bo'yicha 2 kurs mustaqil izlanuvchi Sultangirova Irina Radikovnananing "Своиобразие хореографического текста в национальных балетных спектаклях Узбекистана" mavzusidagi dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o'tkaziladi.

110. 2025-yil 23-oktabr kuni "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida hamda "Ma'naviy hayot" jurnali hamkorligida "Davlat tili – millat g'ururi, Ona tilim – Vatanim ruhi" mavzusida ilmiy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbir doirasida taniqli shoir va tarjimon, marhum A'zam O'ktam tavalludining 65 yilligiga bag'ishlangan ifodali she'r o'qish tanlovi, shuningdek, akademiya va Qo'qon universiteti hamkorligida chop etilgan "Globallashuv sharoitida ona tili va adabiyotning ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash tamoyillari" nomli kitob taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Tadbirda Hindistonning Javoharl'al Neru universiteti Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari, filologiya fanlari doktori, professor Axloq Ahmad Ahan, Turkiyaning Nede universiteti professori Mustafu Qo'rqmas, Shvetsiya yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Jahon uyg'ur shoirlari assotsiatsiyasi raisi, shoir va tarjimon Abdushukur Muhammad ishtirok etib, o'zbekona mehmondo'stlik va do'stona uchrashuv uchun tadbir tashkilotchilariga minnatdorlik izhor etishdi. Tadbir yakunida g'oliblar sertifikat va yangi kitoblar to'plami bilan taqdirlanishdi.

111. 2025-yil 26-oktabr kuni 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Toirova "Jadidlar" xalqaro ilmiy-tadqiqot assotsiatsiyasi hamda Turkiya, Argentina, Rossiya va Qozog'istonning nufuzli ijodiy va ilmiy tashkilotlari hamkorligida o'tkazilgan "Millatlar mozaikasi — Sakkiz davlat, bir sahna, bir qalb!" xalqaro festivalida munosib ishtirok etdi. Festival doirasida o'tkazilgan "Iqdorli yoshlar" tanlovida Y.Toirova yuqori natijalarni namoyon etib, I-darajali diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek, madaniyatlararo do'stlikni mustahkamlashdagi faol ishtiroki va erishgan yutuqlari uchun u "Do'stlik elchisi" faxriy ko'krak nishoni bilan ham mukofotlandi.

112. 2025-yil 26-oktabr kuni bo'lib o'tgan "Dance Battle" xalqaro raqs tanlovi loyihasi doirasida "Assalomu alaykum Toshkent" xalqaro raqs tanlovida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Xojiyev Ramizxon muvaffaqiyatli ishtirok etib, Gran Pri sohibi bo'ldi hamda tanlovning diplom, statuetka va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

113. 2025-yil 26-oktabr kuni bo'lib o'tgan "Dance Battle" xalqaro raqs tanlovi loyihasi doirasida "Assalomu alaykum Toshkent" xalqaro raqs tanlovida "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrasida o'qituvchisi Susanna Useinova hakamlar hay'ati a'zosi sifatida ishtirok etdi.

114. 2025-yil 29-oktabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.02 – "Musika san'ati" ixtisosligi bo'yicha Zufarov Abror Maxamad-Sodikovichning "Navo maqomida parda tizimining rivojlanish evolitsiyasi" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o'tkazildi. Ilmiy seminar xulosasiga ko'ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

115. 2025-yilning noyabr oyida "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrası o'qituvchisi, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Jalilova Shirin Shuxratovna O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intelektual mulk markazi" davlat muassasasi tomonidan 1954-yilda Soyuzmultfilm studiyasi tomonidan hind ertagi asosida yaratilgan "Oltin kiyik" (Золотая антилопа) multfilmiga asoslangan xoreografik spektakli muallifi sifatida "Mualliflik huquqi obyektlarini deponentlash" to'g'risidagi guvohnomani qo'lga kiritdi.

116. 2025-yilning noyabr oyida "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrası o'qituvchisi Ataxanov Shavkat Jo'rabayevich O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intelektual mulk markazi" davlat muassasasi tomonidan "Bahrom va Dilorom" – musiqiy xoreografik spektakli kompozitsion rejasi va librettosi muallifi sifatida "Mualliflik huquqi obyektlarini deponentlash" to'g'risidagi guvohnomani qo'lga kiritdi.

117. 2025 yil noyabr oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professor-o'qituvchilari Gulasal Usmanova, Matluba Murodova, Durdona Abduxakimova, Irina Sultangirova, Shavkat Ataxanovlar tomonidan SCOPUS Q2 bazasiga kiruvchi International Journal of Applied Mathematics jurnalida "BALLETMASTERS OF UZBEKISTAN" nomli maqola nashr etildi. Shuningdek, barcha maqola mualliflari moddiy jihatdan rag'batlantirildi.

118. 2025-yilning 8-noyabr kuni Madaniyat vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, "Mening Yurtim – 5" telekanali va "Renessans TV" hamkorligida o'tkazilgan "World Talents" xalqaro ko'rik-tanlovida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrası o'qituvchisi Useinova Susanna Enverovna hakamlar hay'ati a'zosi sifatida ishtirok etdi.

119. 2025-yil 11-noyabr kuni Xalq ijodiy merosini asrab-avaylash, milliy musiqa san'atini rivojlantirish hamda turli xalqlarning madaniy aloqalarini mustahkamlash maqsadida, Qo'qon davlat universitetida xalqaro o'tkazildi.

Qirg'iz-Turk "Manas" universiteti bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Cholg'u ijrochiligi integratsiyasi (o'zbek-turk-qirg'iz milliy cholg'ulari misolida)" mavzusidagi xalqaro vebinarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 1-kurs magistranti Rasulova Ruhshona "Turkman raqslarida milliy kiyim va bezaklarning estetik funksiyasi" mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi.

120. 2025-yil 11-noyabr kuni O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida bo'lib o'tgan "Zamonaviy musiqa san'atida ilmiy tadqiqotlar va ijodiy yutuqlar" mavzusidagi yosh tadqiqotchilar va talabalar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi Madina Muxamedova, akademiyaning "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari Zokirova Sabina va Turmamatov Bekzodlar faol ishtirok etib, ma'ruza qildilar.

121. 2025-yil 12-noyabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.09 – "Xoreografiya san'ati" ixtisosligi bo'yicha Paxrudinova Karomat Pazildinovnaning "Milliy raqs maktablarining badiiy uslubiy ifodalari: an'ana va zamonaviy tendensiyalari" mavzusidagi dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o'tkazildi.

122. 2025-yil 12 noyabr kuni poytaxtimizdagi "O'zR FA Ilm-fan targ'ibot markazi" va "Science and Innovation" kompaniyasi hamkorligida o'tkaziladigan nufuzli tadbir, "Evrika" ko'rik-tanlovining taqdirlash marosimi o'tkazildi. Tadbirni O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Shavkat Ayupov ochib berdi. Mazkur tadbir O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilib, akademiyaning yosh tadqiqotchilari, ustozlari va talabalari ushbu tanlovni tashkil etilishi va yuqori saviyada o'tkazilishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

123. 2025-yil 14 noyabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida tayanch doktorantura (PhD) bo'yicha 17.00.09 - Xoreografiya san'ati ixtisosligi talabgorlarining mutaxassislik fanidan kirish imtihoni bo'lib o'tdi.

124. 2025-yil 14-noyabr kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Kasimov Nozim Kozimovich hamda akademiya mas’ullari ishtirokida akademiyaning rasmiy sahifasi orqali onlayn qabuli bo‘lib o‘tdi. Onlayn muloqotda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida amalga oshirilayotgan ishlarga oid murojaatlar qabul qilindi hamda mas’ullar tomonidan yechim va takliflar berildi.

125. 2025-yil 14 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri tomonidan 2025-yil 19-fevralda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yilda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san’at, diniy ma’rifat sohalari atqoli namoyandalarining tavallud sanalarini munosib nishonlash hamda ularning faoliyatini keng targ‘ib etish to‘g‘risida 2025-yil 13-fevraldagi 72-F-son farmoyishi ijrosini ta’minlash yuzasidan Madaniyat vazirligining Nazorat rejasi” 9-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida xalq artisti Qunduz Mirkarimova tavalludining 100 yilligi munosabati bilan ustoz san’atkorning ilmiy-ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

126. 2025-yil 24-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2024-yil 17-oktabrdagi F-53-son Farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida “Konstitusiya – erkin va farovon hayot garovi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovga kelib tushgan jami 22 ta ilmiy maqolalar Hakamlar hay’ati tomonidan shaffoflik va oshkoralik bilan o‘rganib chiqildi hamda quyidagilar tanlov g‘oliblari deb topildi: 1-o‘rin Xojiyev Ramzxon – “San’atshunoslik” ta’lim yo‘nalishi, 4-kurs talabasi (o‘zbek guruhi); 2-o‘rin - Nomonova Dilyora – “XJR” ta’lim yo‘nalishi, 4-kurs talabasi (o‘zbek guruhi); 3-o‘rin - Xamraboyeva Farangiz – “XJR” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi (o‘zbek guruhi).

127. 2025-yil 25-noyabr kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi doktorantlari Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi Ilmiy-texnik axborot markazi hamda Springer Nature kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan xalqaro

forumda ishtirok etdi. Tadbir davomida ishtirokchilarga Springer Nature ning ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi, ilmiy adabiyotlar va elektron manbalardan foydalanishning ahamiyati, shuningdek, O'zbekiston ilmiy tashkilotlarining nashriyot faoliyatini yorituvchi analitik ma'lumotlar taqdim etildi.

128. 2025-yil 26-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri tomonidan 2025-yil 19-fevralda (01-14-40-son) tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yilda ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at, diniy ma'rifat sohalari atoqli namoyandalarning tavallud sanalarini munosib nishonlash hamda ularning faoliyatini keng targ'ib etish to'g'risida 2025-yil 13-fevraldagi 72-F-son farmoyishi ijrosini ta'minlash yuzasidan Madaniyat vazirligining Nazorat rejasi" 6-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida O'zbekiston xalq artisti, o'zbek sahna raqs san'ati asoschisi Usta Olim Komilov tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

129. 2025-yil 27-noyabr kuni O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.09 – "Raqs san'ati" ixtisosligi bo'yicha Tairova Yuliya Rafaelevnaning "Региональные особенности Кашкадарьинского танцевального искусства" mavzusidagi dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o'tkazildi.

130. 2025-yil 27 noyabr kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan Samarqanddagi 3-son bolalar musiqa va san'at maktabida bo'lib o'tgan "Yoshlarda ijodiy fikrlashni shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari" mavzusidagi xalqaro seminarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirok etdi. Tadbirda Hindiston, Qozog'iston, Fransiya va Misrdan olimlar, professorlar va tadqiqotchilar ishtirok etib, san'at, musiqaning tarbiyaviy ahamiyati, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi haqida ma'ruzalar taqdim etdi. Ushbu seminarda milliy raqs san'ati, madaniy meros, folklor, bolalar raqs terminologiyasi, shuningdek, zamonaviy ta'limda ijodiy yondashuvning o'рни keng muhokama qilindi. Tadbir yakunida xalqaro

hamkorlikni mustahkamlash, qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

131. 2025-yilning 27-28-noyabr kunlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Milliy Erasmus+ ofisi hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bilan hamkorlikda "Oliy ta'limni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro anjumanda hamda anjuman doirasida tashkil etilgan 9-Milliy ilmiy-ta'lim forumida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi doktorantlari ishtirok etdi. Sarbon University (Toshkent shahri) bazasida bo'lib o'tgan mazkur anjuman va forumning asosiy yo'nalishi – oliy ta'limni rivojlantirish, ilmiy va akademik hamkorlikni yanada kuchaytirish, shuningdek, ilmiy ma'lumotlardan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, nashr etish faoliyatini kengaytirish hamda oliy ta'limda sifatni oshirishga qaratilgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashdir. Forum orqali ilmiy jamoatchilik, ekspertlar, professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar uchun tajriba almashish, xalqaro amaliyotni o'rganish, mavjud imkoniyatlarni kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish bo'yicha yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyati yaratiladi.

132. 2025-yilning 1-oktabridan 28-noyabriga qadar Ufa shahridagi Zagir Ismagilov nomidagi Ufa davlat san'at institutida tashkil etilgan "Raqs eksperimenti" VI Ochiq butunrossiya xoreografiya tanlovida akademiya talabalari munosib ishtirok etdilar. Mazkur xalqaro tanlov an'anaviy va masofaviy shakllarda o'tkazildi. Birinchi bosqichda akademiya talabalari tanlovning texnik va dasturiy talablariga to'liq mos keluvchi ijodiy chiqishlarining videoyozuvlarini taqdim etdilar. Taqdim etilgan materiallar saralovi yakunlariga ko'ra, ular ikkinchi bosqichga taklif qilindi. Tanlovning an'anaviy bosqichi Ufa davlat san'at institutining Gilyazev nomidagi O'quv teatrda bo'lib o'tdi. Akademiya talabalari tanlovning barcha bosqichlarida yuqori ijrochilik mahorati, puxta professional tayyorgarlik va individual ijodiy yondashuvlarini namoyon qildilar. Tanlov yakunlariga ko'ra, ular o'z nominatsiyalarida sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib, akademiya xoreografik ta'lim sifati va yosh ijodkorlarning yuksak salohiyatini

yana bir bor tasdiqladilar. Grant pri Abakulov Asadbek, I-darajali laureat Xaydarov Islom “Lagan” raqsi (rahbar: Gulasal Usmonova, xoreograf: Qodir Muminov), I-darajali laureat Olimjonova Lazokatxon “Lazgi” raqsi (rahbar va xoreograf: Malohat Maxmudova)

133. 2025-yilning noyabr oyida Nyu-Dehli universitetida O‘zbekiston – Hindiston madaniy aloqalari muhokama qilindi. Hindistonning Javoharla’l Neru universitetida o‘tayotgan malaka oshirish kurslari doirasida yana bir nufuzli oliy ta’lim muassasasi – Nyu-Dehli universitetida ilmiy seminar bo‘lib o‘tdi. Seminarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası professori v.b., filologiya fanlari doktori Hulkar Hamrayeva “O‘zbekiston –Hindiston madaniy aloqalarining tarixiy ildizlari”, O‘zDXA Urganch filiali professori, O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova “O‘zbek-hind raqs maktabining mushtarak tamoyillari”, filial katta o‘qituvchisi Dilnoza Mavlonova “Lazgi” va “Katak” raqslarining ifoda uslublari” mavzularida nutq so‘zladilar. Ma’ruzachilar ikki xalq o‘rtasidagi ko‘p asrlik madaniy va ma’naviy bog‘liqlik, ilmiy almashinuvlar, adabiy ta’sirlar hamda san’at sohasidagi hamkorliklar haqida atroflicha ma’lumot berdilar. Shuningdek, H.Hamrayeva tarixiy manbaalar va ilmiy izlanishlar asosida Hindiston va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning rivojlanish bosqichlariga ham to‘xtalib o‘tdi. Shuningdek, O‘zbekiston olimlari Hindistonning Gauhati universitetida buyuk boburiy mutafakkir Doro Shukuh ilmiy merosiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada ham ishtirok etdilar.

134. 2025-yilning noyabr oyida “Qashqadaryo raqs san’atining mintaqaviy xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsion tadqiqot doirasida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 1-kurs tayanch doktoranti Yuliya Tairova Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida dala izlanishlarini olib bordi. U Qarshi ixtisoslashtirilgan boshlang‘ich raqs maktab-internatining direktori S.Xaydarova bilan hamkorlikda Chiroqchi madaniyat markazida bo‘lib, “Chiroqchi chiroqlari” xalq folklor-etnografik ansambli ishtirokchilari bilan uchrashdi. Ekspeditsiyaning maqsadi — Qashqadaryo mintaqasining autentik raqs

an'alarini o'rganish va hujjatlashtirish, ularni asrab-avaylab kelayotgan, xalq merosining tirik saqlovchisi bo'lgan ansambl faoliyatini tahlil qilishdan iboratdir. Ish jarayonida ansambl ishtirokchilari bilan suhbatlar o'tkazilib, repetitsiya jarayonlarida bevosita ishtirok etildi, bu esa xoreografik materialni uzatish metodikasini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. O'tkazilgan ekspeditsiya Qashqadaryo raqs san'atining betakror merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish yo'lidagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi.

135. 2025-yilning noyabr oyida Hindistonning Javoharla'l Neru universiteti Ilmiy kengashi tavsiyasi bilan hindistonlik mualliflar hamda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali professori, O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova va O'zDXA "San'at nazariyasi tarixi" kafedrası professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc) Hulkar Hamrayevalar hammuallifligida "A comparative study of Lazgi and Kathak: Historical evolution, similarities, and post-Independence developments" ("Lazgi va Kathak raqslarining qiyosiy tahlili: tarixiy shakllanishi, mushtarak jihatlari va mustaqillik davridagi rivojlanish jarayoni") nomli monografiyasi nashrdan chiqdi. Shuningdek, Hulkar Hamrayevaning "The art of oratory: historical foundations, contemporary significance, and development in Uzbekistan's higher education institutions" ("Notiqlik san'ati: tarixiy asoslari, zamonaviy dolzarbligi va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida rivojlanish istiqbollari") nomli monografiyasi ham Hindistonning Javoharla'l Neru universiteti Ilmiy kengashi tavsiyasi bilan nashrdan chiqdi.

136. 2025-yilning noyabr oyida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi vakillari "Xoreografiya jamoalari rahbari" kafedrası o'qituvchisi Useinova Susanna Enverovna va "XJR" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi Nozimaxon Xursanboyeva Bashqirdiston Respublikasi, Ufa shahridagi "Vsya Ufa" telekanalining "Столица" telehousi efirida ishtirok etdilar.

137. 2025-yil 2-dekabr kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamkorlikda Shaxzoda Xudoynazarova rahbarligidagi "Eshitishida va so'zlashuvida nuqsoni bo'lgan

shaxslar uchun raqs harakatlarining tizimli innovatsion majmuasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida 3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan “Inklyuziv raqs va cheklovsiz ijod” shiori ostida “Biz tengmiz — bir safdamiz” nomli ilmiy-ijodiy tadbir tashkil etildi.

138. 2025-yil 3-dekabr kuni 17.00.01 – “Teatr san’ati” ixtisosligi bo’yicha Turoпова Maloxat Abdurahim qizining “Zamonaviy o’zbek qo’g’irchoq teatri rejissurasi” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo’yicha ilmiy seminar o’tkazildi. Ilmiy seminar xulosasiga ko’ra, mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

139. 2025-yil 11-dekabr kuni Ma’rifat markazi tarkibidagi Simpoziumlar saroyida pokistonlik siyosatshunos va jurnalist Muhammad Abbos Xonning “O’zbekiston: Uchinchi Renessans” nomli yangi kitobi taqdimoti bo’lib o’tdi. Taqdimotda akademiya rektori boshchiligida doktorantlar ishtirok etdi. Muallif o’z kitobida tarixni to’siq emas, balki avlodlarni bog’lovchi ko’prik sifatida qabul qilish, kelajakni esa hamkorlikdagi mehnatdan tug’iladigan yaratuvchan kuch sifatida ko’rish lozimligini ta’kidlaydi. Asarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g’oyasi ma’rifat, tinchlik va muloqot tamoyillariga asoslangan chuqur o’zgarishlar loyihasi ekanligi qayd etilgan.

140. 2025-yil 18-dekabr kuni 17.00.02 – “Musika san’ati” ixtisosligi bo’yicha A’zamova Munajat Raximovnaning “O’zbek-Hind musika merosida Bobur va Boburiylar ijodining ahamiyati va o’zbek maqomidagi o’rni” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o’tkaziladi. Seminar xulosasiga ko’ra mazkur tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

141. 2025-yil 20-dekabr kuni “O’zbekistonning taniqli olimlari” ensiklopediyasining 2025-yilgi nashri e’lon qilindi. Mazkur ensiklopediyada O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori Nozim Qosimov ham o’rin olgan.

142. 2025-yil 22-dekabr kuni O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 17.00.09 – “Raqs san’ati” ixtisosligi bo‘yicha Adilov Axror Asqarovichning “O‘zbekistonda balet ssenografiyasi: an’ana va zamonaviy yondashuv (2000-2026 yy.)” mavzusidagi dissertatsiyasi yuzasidan ilmiy seminar o‘tkazildi.

143. 2025-yil 22-dekabr kuni prorektor N.Kasimov tomonidan “Ilmiy maqolalar tayyorlash va uni chop etish” mavzusida ilmiy seminar o‘tkazildi. Seminarda iqtidorli talabalar, magistrant va doktorantlar, yosh tadqiqotchi pedagoglar ishtirok etdi. Jarayonda ilmiy maqolalar yozishning metodik asoslari, ilmiy-tadqiqot strukturasi, mavzu tanlash tamoyillari va ilmiy axborotlar manbalaridan foydalanish masalalari yoritildi. Shuningdek, maqola tuzilmasi, ilmiy uslub talablari, bibliografik ro‘yxatni to‘g‘ri rasmiylashtirish va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etish tartibi bo‘yicha batafsil ma’lumotlar berib o‘tildi.

144. 2025-yil 24-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan davlat buyurtmasi asosida oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda olib borilayotgan ishlarni o‘rganish (monitoring) guruhi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida o‘rganishlar olib bordi. Ishchi guruhi tomonidan akademiyaning ilmiy-tadqiqot va izlanuvchilar faoliyati samaradorligi hamda xarid qilingan asbob-uskunalaridan foydalanish holati yuzasidan ijobiy fikr va xulosalar bildirildi.

145. 2025-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenining 2025/3-sonida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi Gavxar Matyakubovanning «“Lazgi” raqs turkumining tadrijiy taraqqiyoti va milliy-estetik xususiyatlari” mavzusidagi hamda 1-kurs tayanch doktoranti Karomat Paxrudinovaning “Milliy raqs maktablarining badiiy uslubiy ifodalari: an’ana va zamonaviy tendensiyalari” nomli dissertatsiya mavzulari e’lon qilindi.

146. 2025-yilning dekabr oyida “Scientific Academy” Ilm-ma’rifat markazining 2025-yil 10-noyabrdagi 82-son buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston

davlat xoreografiya akademiyasi professor-o'qituvchilari: Saitova Erkinoy Yakubovna, Yeshimbetova Aydin Ibadullayevna, Sultangirova Irima Radikovna hamda "Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi magistranti Tilabova Durdonaxon Turdiquil qizi (ilmiy rahbar: E.Saitova) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovning "Ta'lim sohasidagi fidoyi xizmatlari uchun" esdalik ko'krak nishoni bilan, shuningdek, markazining tegishli buyrug'iga asosan, "San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Hojiyev Ramizxon Iskandar o'g'li xalqaro ilmiy-amaliy ko'rik-tanlovning "Yuksak ehtirom" xalqaro esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

147. 2025-yilning dekabr oyida Qozog'iston Jahon tillari instituti, "Do'stlik" hamjamiyati, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi, Andijon davlat pedagogika instituti, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti va Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universiteti bilan hamkorlikda butun dunyodan talabalar va yosh tadqiqotchilarni filologiya, tilshunoslik va madaniyatlararo muloqot sohaslarida tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish, akademik yozuvchilik darajasini oshirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 2025-yilgi Xalqaro ilmiy maqolalar tanlovi tashkil etildi. Mazkur tanlovda akademiyaning 20 nafar iqtidorli talabalari o'zlarining ijodiy ishlari (maqolalari) bilan faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egalladilar.

148. 2025-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar ixtisosliklari ro'yxati" e'lon qilindi. Mazkur ro'yxatga O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining 17.00.09 - Xoreografiya san'ati ixtisosligi ham kiritildi.

149. Hisobot yilida "Raqs olami" gazetasining 10 ta soni hamda "Nafosat olami" jurnalining 4 ta soni nashrdan chiqdi.



N.Kasimov